

FARISHTAM ONAM, YANGIQO'RG'ONIM, MEHRIBONIM.

G'ofurova Feruza
9-maktab targ'ibotchisi

Anotatsiya: *ushbu maqolada Farishtam onam, yangiqorg'onim, mehribonim G'ofurova Feruza tomonidan kengyoritildi.*

Kalit sozlar: *Farishtam onam, Meribonim onam, Yangiqo'rgonim,*

Xotiring jam bo'lsin sokin hayol,
Farzandlar dog'ida kuydiku ayol.
Biri tog'ing, biri jamoling edi,
Ularning hijroni bag'ringni yedi.
Tog'ing edi umr yo'ldoshing,
Qizlar edi sirdoshing.
Yetarmu endi bardoshing,
Onajon, omon bo'lsin bu boshing
Hayot ekan beshavqat beayov,
Oramizdan ketdilar yurib yayov.
Jannatlarda bulgandir joyingiz,
Izlab toparmizmi poyingiz.
Onajonim bag'rini huvvilatdingiz,
Jigarlar ko'z yoshin duvvilatdingiz
To'rt avlon qayga shoshib ketdingiz
Shosha pisha ul jannatga yetdingiz
Yuzlaringiz nur so'zlaringiz dur edi
Farzandlaringiz bo'lsa xali g'o'r edi
Farzandlarin tashlab ketgan to'rt avlon
Farzandlaring mehri sizga zo'r edi
O'nta bo'lsa o'rni bor edi
Jigarlarga mehri zo'r edi
Mehribon suyukli yor edi
Takrorlanmas to'rt avlon edi
Farishtalar fayzi bor yuzingizdan
Arimasin endi quvonch ko'zingizdan
Bag'ringizni o'rtamasin hech armonlar
Bo'laylik joningizga darmonlar
Nabirayu, chevaralar suyukli momosisiz
Shirin so'zu dillarni oromisisiz
Omon buling, buling omon onjon

O'rtamasin hech endi hijron.
Yangiqo'rg'onim
Maqtovlaring zo'r diyorimsan,
Mevalarga kon makonimsan.
Bag'ri qaynoq ota makonim,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Bog'laringda xurriyat shamoli,
Hilpiraydi bog'bon qizning ro'moli.
Kurimlidir qishlog'imning jamoli,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Mehnat qilib tolmas xalqing bor,
Mevalaring hech narsaga qilmas zor.
Atrofig turli-tuman mevazor,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Kelajak uchun oltin makonsan,
Istiqbolli farzand konisan.
Ming yillar yashasang ha,
Mangu yangi bulib qolasan.
Ox Yangiqo'rg'onim!
Mehribonlarim
Onam mening gul bog'im,
Otam mening qalb tog'im.
Hayotim mazmunlarin,
Asragin ey ollohim.
Dardlarga malham berguvchi
Shifokorim onamsiz
Ilmu ziyo tarqatguvchi
Ziyokorim otamsiz
Qani endi dardingizga
Darmon bo'lsam
Belingizga quvvat
So'zlashga zabon bo'lsam
Bir umr bolam-chaqam deb yashadingiz
Bir umr kuyib pishdingiz mushtipar onam
Ollohim asragin bog'u rog'imni
Asragin ollohim ko'z qarog'imni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustaqil izlanuvchi tomonidan yoritildi.